

“YURTIMIZDAGI AYOLLARGA YARATILAYOTGAN KENG IMKONIYATLAR”

**Abdubannayeva Shodiyaxon Nasriddin qizi**

*OʻzMU Lingvistika (nemis tili)*

*mutaxassisligi 2-kurs magistri*

*ilmiy rahbar: F.f.f.dot. Ismoilov.Y.N*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yurtimizda olim xotin-qizlar uchun yaratilayotgan keng koʻlamli islohotlar xususida soʻz yuritiladi.*

**Annotation:** *This article talks about the wide-ranging reforms being created for women scientists in our country.*

**Kalit soʻzlar:** *Xotin-qizlar taʼlimi, chora-tadbir, milliy dastur, Olima ayollar jamiyati, Antonina Lenkova Mironovna, Leksikologiya .*

**Keywords:** *Women's education, action, national program, Society of Women Scientists, Antonina Lenkova Mironovna, Lexikologie*

*Barchamizga ma` Qizlarimiz bilmaydi, tushunmaydi, o`qimaydi, deymiz.*

*Chunki ularni o`zimiz o`qitmaymiz.*

**SH.MIRZIYOYEV.**

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti**

lumki, soʻngi yillarda yurtimiz rivojlanishi yoʻlida koʻplab yangidan yangi islohotlar olib borilmoqda. Shu oʻrinda, bir narsani takidlash joizki, barcha ayollarni jamiyatda va oilada oʻz oʻrnini topishi uchun koʻplab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda olim ayollarni safini kengaytirish, ularga moddiy yordam koʻrsatish, oiladagi ayollarga boʻlgan zoʻravonliklarga barham berish maqsadida yurtboshimiz tomonidan koʻplab chora tadbirlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-2026-yillarga moʻljallangan Xotin-qizlar taʼlimini qoʻllab-quvvatlash milliy dasturi ishlab chiqildi. Bu haqida muhtaram yurboshimiz 2022-yil 7-mart kuni “8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan oʻtkazilgan marosimda shunday bayon qildi:

“Zukko va bilimdon xotin-qizlarning ilm-fanga boʻlgan qiziqish va ishtiyoqini oshirish maqsadida biz bir qancha muhim chora-tadbirlar belgiladik. Jumladan, kelgusi oʻquv yilidan boshlab magistraturada oʻqiyotgan barcha qizlarning kontrakt pullarini toʻliq budjetdan qoplab berish uchun har yili 200 milliard soʻm mablagʻ yoʻnaltiriladi; doktorantura yoʻnalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Bu ishlarni tizimli ravishda tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi huzurida “Olima ayollar jamiyati” tuziladi. Ushbu jamiyat

mamlakatimizda va xorijda ilm-fan sohasida yuksak yutuqlarga erishayotgan olim ayollarimizni jipslashtirib, ularning aql-zakovat nurini hayotimizning har bir jabhasiga kirib borishi uchun o'ziga xos parvoz maydoniga aylanadi.

Zahmatkash olimalarning mashaqqatli va sharafli mehnatini munosib rag'batlantirish, ular uchun har jihatdan qulay sharoit yaratish maqsadida "Olima ayollar jamiyati"ga har yili 50 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Umuman olganda, yuqorida aytilgan barcha maqsadlarga joriy va kelgusi yil uchun 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi."<sup>44</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni 3-bandining "b" kichik bandi birinchi xatboshisiga muvofiq davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtirish haqidagi qaroriga muvofiq barcha magistratura bosqichida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari to'lab berildi.<sup>45</sup> Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda men magistratura bosqichida tahsil olmoqdaman. Bunday shart-sharoitlar, bilimli, ziyoli olim ayollarning yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

07.03.2022 Prezidentimizning ushu farmonlariga asosan men ham 2023-yil 20-fevralda O'zbekiston milliy universitetiga nemis tili (lingvistika) yo'nalishiga magistratura bosqichiga o'qishga kirdim. Univesitetda qizlarni o'qishiga alohida e'tibor berilyapti. Hozirda shu universitetni magistrature bosqichida o'qib kelyapman. Bizga fanlar malakali professor o'qituvchilar tomonidan o'tilyapti. Ilmiy seminarda talabalarga magistrlik dissertatsiyasi qanday yoziladi, qanday mavzular tanlanadi, necha bobdan iborat bo'ladi va qancha muddatda yozilishi haqida ma'lumotlar to'liq berildi va men shu ma'lumotlar asosida o'zimga dissertatsiya mavzusini tanladim. Mening dissertatsiya mavzuyim: **Nemis tiliga chetdan o'zlashgan so'zlarning struktur va semantik tadqiqi**. Menga bu mavzu yuzasidan ilmiy rahbar tayinlandi. Ilmiy rahbarim bilan birgalikda turli izlanishlar va tadqiqotlar olib bordim va hozirda ham olib boryapman. Dissertatsiya mavzuyimga oid turli adabiyotlar qidirdim va topdim. Ularning ichida meni e'tiborim tortgan olim ayollar ham bor edi. Rus tilshunoslari A.Iskos, A.Lenkovalar meni dissertatsiya mavzuyim yuzasidan juda ko'p tadqiqot ishlarini olib borishgan ekan. Bu ma'lumotlarni izlash va o'rganish jarayonida ushbu olimlarning "**Deutsche Lexikologie**" kitobi bilan tanishib chiqdim. Ushbu kitobda nemis tiliga boshqa tildan o'zlashgan so'zlar haqida juda ko'p ma'lumotlar yozilgan ekan. Bu

<sup>44</sup> "Shavkat Mirziyoyevning 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan marosimda so'zlagan nutqi". Daryo.uz (2022-yil 7-mart).

<sup>45</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.08.2022-y., 09/22/447/0741-son; 07.04.2023-y., 09/23/143/0199-son.

ma'lumotlarni o'rganish jarayonida rus tilshunoslarning hayotiga ham qiziqish paydo bo'ldi.

Rus tilshunos olimi Antonina Lenkova Mironovna 1925 yil 25 dekabrda Rostov viloyatining Krasnokutskaya qishlog'ida Don kazak oilasida tug'ilgan. Otasi - Miron Pavlovich Lenkov, Leningrad harbiy okrugining 72 va 66-polklarining otliq askari bo'lgan va 1936 yilda vafot etgan. Bolaligi va o'smirligi Leningradda o'tgan.

Ulug' Vatan urushi boshlanganda Antonina o'n besh yoshda edi. Urush uni Rostov viloyatining Krasnokuskaya qishlog'ida topgan, o'sha paytda u singlisi Valya bilan buvisinikiga borgan. Keyinroq, u singlisini bolalar uyiga yubordi va o'zi MTSga ishga ketdi, qishda traktorlarni ta'mirladi va bahorda ular bilan ishladi. 1942 yilda o'n yetti yoshida u ko'ngilli ravishda frontga jo'nadi va 44-zirhli texnika ustaxonasi va 67-avtopolki tarkibida Stalingrad, Janubiy va 4-Ukraina frontlarida jang qildi. Antonina Mironovna - Stalingrad jangi qatnashchisi, urushni texnik xizmat brigadiri unvoni bilan tugatgan.

Ulug' Vatan urushi tugagandan so'ng Antonina Mironovna O'zbekiston Davlat universitetiga o'qishga kirdi va uni 1949 yilda tugatdi. 1949-1959 yillarda Shimoliy Kavkaz, Pomir va Boltiqbo'yi davlatlarining daryolarini o'rganish bo'yicha gidrografik partiya boshlig'i bo'lib ishlagan. 1959 yilda Lenkova jurnalistika bilan shug'ullangan, u SSSR Jurnalistlar uyushmasi (1967), Ukraina Jurnalistlari milliy uyushmasi a'zosi va ko'p yillar davomida "Bilim" jamiyatining a'zosi bo'lgan. 1981 yilgacha Antonina Mironovna Rostov-Don shahrida yashagan, gazetalarda mustaqil xodim bo'lib ishlagan, mintaqaviy radioda ishlagan, musiqa va yoshlar dasturlarini olib borgan va Donning eng yaxshi o'qituvchisi bo'lgan.

1976 yilda u ko'rish qobiliyati bilan bog'liq sog'lig'i yomonlashgani sababli Teleradio Don TR xodimlaridan iste'foga chiqdi, ikkinchi guruh nogironi deb tan olindi, ammo mustaqil muxbir sifatida ishlashda davom etdi. 1982 yilda u Berdyansk shahriga jo'nab ketdi va u yerda jurnalistlik faoliyatini davom ettirdi: u gazetalarda, radioda ishladi, ma'ruzalar o'qidi, yosh shoirlarga yordam berdi va ularning to'plamlarini tahrirga tayyorladi. Antonina Mironovna Lenkova - "Oila kitobi", "Mening izim", "Oilaviy kitobimga ilova" va "O'zim haqimda va men yashagan vaqtim haqida" kitoblarini yozgan. 1943 yil fevral oyida Antonina Lenkova Rostov-Don shahrini ozod qilishda qatnashdi, 1985 yilda "Bu Ulyanovskayada edi" kitobi nashr etildi. Ushbu hujjatli hikoyada Antonina Mironovna Rostov-Don shahridagi Ulyanovskaya ko'chasidagi bolalar haqida gapiradi, ular ishg'ol paytida kattalarga yordam berishgan, yarador sovet askarlariga boshpana berganlar va ular buning uchun natsistlar tomonidan otib tashlangan.

Ular Antonina Mironovna haqida she'rlar yozadilar, gazetalarda yozadilar, kitoblarda: Svetlana Aleksandrovna Aleksievich o'zining "Urush ayolning yuzi yo'q"

kitobida Lenkova taqdiri haqida gapiradi. Nikolay Demyanenko "Hayot dengizga o'xshaydi" kitobida. U 2014 yil 26 mayda Berdyansk shahrida vafot etdi.

Antonina Mironovna Lenkova o'z kitoblari va tadqiqotlari orqali nemis tiliga boshqa tildan o'zlashgan so'zlar yuzasidan ko'p izlanishlar olib brogan va nemis tili so'z boyligini orttishiga o'z hissasini qo'shgan tilshunos olimadir.

Ushbu ma'lumotlar orqali biz tilshunos olima Antonina Mironovna Lenkova nemis tili rivojiga ulkan hissa qo'shgani, hayoti davomida ko'plab izlanishlar olib borib, tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirganini guvohi bo'limishimiz mumkin. Olimaning tilshunoslikga qo'shgan hissasi orqali biz butun dunyoda xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor qanday yuksak darajada ekanligini anglab yetishimiz mumkin. Bizning ham mamlakatimizda ko'plab olima ayollar mavjud. O'ylaymizki, kelgusi yillar davomida olima, zukko ayollarning safi bundanda kengayib boradi va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturi o'z natijasi beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Shavkat Mirziyoyevning 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan marosimda so'zlagan nutqi". Daryo.uz (2022-yil 7-mart)
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.08.2022-y., 09/22/447/0741-son; 07.04.2023-y., 09/23/143/0199-son
3. Современные российские лингвисты, 2019, с. 271.
4. A.Iskos, A.Lenkova "Deutsche Lexikologie".